

Surxondaryoda kimyo sanoati tadbirkorlari bilan ochiq muloqot o'tkazildi

// 14.08.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/surxondaryoda-kimyo-sanoati-tadbirkorlari-bilan-ochiq-muloqo>



"O'zkimyosanoat" AJ rahbariyatining hududlarda biznes vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlari davom etmoqda.

Ushbu uchrashuvlar **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan VI ochiq muloqotiga tayyorgarlik doirasida tashkil etilmoqda.** Asosiy maqsad — tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni aniqlash, taklif va tashabbuslarni eshitish hamda ularga amaliy yechimlar ishlab chiqish.



Navbatdagi uchrashuv Surxondaryo viloyatida kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va korxona rahbarlari ishtirokida o'tkazildi.

Muloqotda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, xomashyodan samarali foydalanish, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish hamda yangi loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.



Xususan, Termiz shahridagi **“BIO TEXNO ECO” MCHJ** polietilen va armoplast naylar, ikki qatlamli gofrirlangan quvurlar ishlab chiqaradi. **Sherobod tumani Chorbog‘ mahallasidagi “XUJAIKON TUZ” MCHJ** tuz qazib olish bilan shug‘ullanadi. Denov shahridagi **“ABULFAYZ-MIRAKBAR”** oilaviy korxonasi esa chiqindilarni boshqarish va to‘plash yo‘nalishida faoliyat yuritadi.



Uchrashuvda tadbirkorlarning taklif va murojaatlari eshitilib, ularni hal etish bo'yicha tegishli choralar belgilab olindi.



Bunday ochiq muloqotlar hududlardagi dolzarb masalalarni bevosita tadbirkorlar ishtirokida o'rganish va soha rivoji uchun amaliy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

